

## MAHALLA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI HAMKORLIGINI TRANSFORMATSIYALASH

N.A.Samandarova

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor  
va mutaxassislarini qayta tayyorlash va  
ularning malakasini oshirish instituti  
stajyor-tadqiqotchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mahalla va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorligining ijtimoiy-madaniy, qadriyatlar, motivatsiya va ijtimoiy harakatlar modelining transformatsiyalashgan boshqaruv tizimining samarali mexanizmlarini haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim muassasasi, mahalla instituti, ijtimoiy-madaniy, qadriyatlar, motivatsiya, ijtimoiy harakatlar, model, transformatsiyalash, muvofiqlashtirish.

**Аннотация:** В статье рассматриваются эффективные механизмы трансформированной системы управления социокультурными, ценностными, мотивационными и социально-действенными моделями взаимодействия местных сообществ и дошкольных образовательных организаций.

**Ключевые слова:** Дошкольное образовательное учреждение, соседский институт, социокультурный, ценности, мотивация, общественные движения, модель, трансформация, координация.

**Abstract:** The article examines the effective mechanisms of the transformed management system of socio-cultural, value, motivational and socially effective models of interaction between local communities and preschool educational organizations.

**Keywords:** Preschool educational institution, neighborhood institute, socio-cultural, values, motivation, social movements, model, transformation, coordination.

Mahalla va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik bolalar rivojlanishiga va jamiyatning ijtimoiy farovonligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yangi O'zbekistondagi tub islohotlar negizida xalkchil boshqaruv tizimi hisoblangan maxalla institutlarining yangi formatdagi tizimi amaliyotga joriy etildi. Azaliy ma'naviyatimiz va milliy qadriyatlarimizning fundamental asosi bo'lgan maxalla bugun kuchli tarbiya o'chog'i sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, Mahalla institutlari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorligi boshqaruv tizimini transformatsiyalashning muhim jihatlarini tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqqan holda tahlil qilamiz. Transformatsiya jarayonida davlat va jamiyatning o'zaro munosabatini tahlil etishga qaratilgan. Transformatsiya jarayonida har ikki tomon ham mustahkam aloqadorligi natijasida davlat boshqaruvida ham, jamiyat hayotida ham demokratlashtirishi, iqtisodiy rivojlanishga erishishi mumkin. Transformatsiya jarayoni bu muqarar jarayon bo'lib, uni kechiktirish yoki rad etishdan har ikki tomon faqat yutqazishi mumkinligi natijasi isbotlangan. Transformatsiya - davlatning fundamental o'zgarishidir. Transformatsiya so'zi lotin tilidagi "transfor" va "matio" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "o'zgarish" va "oldinga" degan ma'nolarni anglatadi. Jamiyat va davlat o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Transformatsiya jamiyatdagi asosiy

sifat o'zgarishlarini anglatadi, agar o'zgarishlar ijtimoiy voqelik va zaruriy ehtiyoj asosida vujudga kelsa, ularning aks - sadolari odatda jamiyat hayotining barcha sohalarida sezilib, uning eng muhim sifatini o'zgartiradi. Jamiyat -insonlarning oila va guruhlar o'rtasidagi murakkab aloqalar, ijtimoiy ahamiyatga molik munosabatlar tizimi sifatida talqin etiladi. Davlat - jamiyatning yagonaligi va yaxlitligini ta'minlaydigan siyosiy tashkilot bo'lib, maxsus mexanizm vositasida jamiyat ishlarini boshqaruvchi suveren ommaviy-siyosiy hokimiyat sifatida huquqqa umumiy majburiy xususiyat baxsh etadi, Transformatsiya shunchaki islohot yoki o'zgarish jarayoni emas, balki jamiyat va davlatning barcha tizimlarida bir holatdan ikkinchi holatga butunlay o'tish jarayonidir. Transformatsiya jarayonida davlat va jamiyat hayotida sifat o'zgarishlari kuzatiladi, ya'ni sifat jihatdan yangi bosqichga o'tilish tushuniladi. Davlatlar va jamiyatlarning rivojlanishda o'zaro aloqadorlik muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy barqarorlik, tabiiy resurslar, davlat va jamiyat hamkorligi, ishchi kuchi kabi ichki kriteriyalar orqali transformatsiyaning vujudga kelishi ham tezlashadi. Sanoatlashtirish, agrar sektor va ichki bozorlarning hajmi, tabiiy resurslar bilan ko'p yoki oz miqdorda ta'minlanganligi va milliy o'ziga xos iqtisodiy tuzilmalar davlatning transformatsiya jarayonlariga ta'sir etadigan muhim omillaridir. Davlat o'zgarishining sababini aniqlash uchun ijtimoiy guruhlarning shakllanishi, ushbu guruhlarning tashkil etilishi va faoliyati va shu bilan bog'liq hodisalarni hisobga olish kerak. Ijtimoiy-madaniy daraja jamiyatda hukmronlik qiladigan qadriyatlar, motivatsiya va ijtimoiy harakatlar modeli bunday munosabatlarning talablariga javob berishi mumkin. Albatta, jamiyatda yuzaga keladigan tegishli ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, rasmiy ravishda, normativ nuqtai nazardan, ular o'zgarishsiz qolgan taqdirda ham, ijtimoiy institutlarning butun tizimi faoliyatining xarakteriga jiddiy o'zgarishlar kiritadi. Qonuniy hukumat o'z fuqarolariga to'g'ridan - to'g'ri tasir etish kuchiga ega bo'lishi ham davlatda transformatsiya jarayonini vujudga keltirish va jadallashtirish imkoniyatini oshiradi. Davlat talablarining maqsadi - mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy barkamol va intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalash.

Davlat talablarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy meyorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon.

-maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

-milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

-ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

-kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "Mahalla institutning jamiyatdagi rolini oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida blishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-sonli farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida

3. Ключко Е.Н. Сектор виртуальных услуг в современной экономике сервиса: функциональное содержание, принципы управления, социальная инфраструктура: Монография - Краснодар: Изд-во ЮИМ, 2012. - С. 331.